



**MAVZU: YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI
VA PSIXOTROP MODDALAR BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI
OLDINI OLISHGA OID ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNING
IMPLEMENTATSIYASI**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistraturasi magistranti Akramjonov Iqboljon Akramjon o'g'li*

Annotatsiya. Maqolada yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari hamda ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Shu bilan birga, O'zbekistonda ushbu sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida yoshlar orasida giyohvandlikni oldini olishda profilaktika, ta'lim va psixologik yordam tizimlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, psixotrop moddalar, yoshlar jinoyatchiligi, profilaktika, rehabilitatsiya, xalqaro tajriba, davlat siyosati.

**ТЕМА: ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРОФИЛАКТИКИ
ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАРКОТИЧЕСКИМИ
СРЕДСТВАМИ И ПСИХОТРОПНЫМИ ВЕЩЕСТВАМИ, СРЕДИ
МОЛОДЕЖИ И ЕГО ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ.**

*Университет общественной безопасности Республики Узбекистан
магистрант магистратуры Акрамжонов Икболжон Акрамжон угли*

Аннотация. В статье анализируются криминологические особенности преступлений, связанных с наркотическими средствами и психотропными



веществами среди молодежи, а также причины их возникновения. При этом освещены основные направления государственной политики, осуществляемой в Узбекистане в этой сфере. На основе опыта зарубежных стран разработаны предложения по совершенствованию систем профилактики, образования и психологической помощи в профилактике наркомании среди молодежи.

Ключевые слова: наркомания, психотропные вещества, молодежная преступность, профилактика, реабилитация, международный опыт, государственная политика.

**TOPIC: ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN THE
PREVENTION OF CRIMES RELATED TO DRUG AND PSYCHOTROPIC
SUBSTANCES AMONG YOUNG PEOPLE AND ITS IMPLEMENTATION.**

University of Public Security of the Republic of Uzbekistan

Master's student Akramjonov Iqboljon Akramjon ugli

Abstract. The article analyzes the criminological features of crimes related to narcotic drugs and psychotropic substances among young people, as well as the reasons for their occurrence. At the same time, the main directions of state policy implemented in Uzbekistan in this area are highlighted. Based on the experience of foreign countries, proposals have been developed to improve the systems of prevention, education, and psychological assistance in the prevention of drug addiction among young people.

Keywords: drug addiction, psychotropic substances, youth crime, prevention, rehabilitation, international experience, state policy.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barqarorligi va kelajak avlodning sog'lom ruhda kamol topishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri



hisoblanadi. Ammo so‘nggi yillarda yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste‘mol qilish hamda ular bilan bog‘liq jinoyatchilik holatlarining ko‘payishi jiddiy ijtimoiy xavf sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon nafaqat jinoyatchilik darajasini oshiradi, balki yosh avlodning ma‘naviy, axloqiy va jismoniy yetukligiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar o‘zining murakkab ijtimoiy-huquqiy tabiatiga ko‘ra kriminologiya fani uchun alohida tahlilni talab etadi. Bu turdagi jinoyatlarning asosiy qismi aynan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshiradi. Yoshlar – jamiyatning eng faol va ta‘sirchan qatlami bo‘lib, ularning jinoyatchilik muhitiga aralashishi nafaqat ularning shaxsiy taqdiriga, balki umummilliy xavfsizlikka ham tahdid soladi.

Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminologik jihatdan o‘rganish, ularni keltirib chiqaruvchi kriminogen omillarni aniqlash hamda samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi PF-73-son **“O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni**[1] qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatda aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, o‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta‘sir qiluvchi dorilarni iste‘mol qilishga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, aholiga sifatli narkologik yordam ko‘rsatish tizimini yangi usullar asosida rivojlantirish, giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya mexanizmlarini tubdan takomillashtirish nazarda tutilgan. Shu bilan birga giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa, internet



tarmogʻidagi usullariga barham berish, bu boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini, birinchi navbatda raqamlashtirish orqali rivojlantirish, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, farmasevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shugʻullanuvchi subʼektlar masʼuliyatini oshirishning taʼsirchan mexanizmlarini yaratish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning ushbu farmonlari asosida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha **“2024—2028 yillarga moʻljallangan milliy strategiya”**[1] tasdiqlandi. Mazkur strategiyada 6 ta maqsad va uning ustuvor yoʻnalishlari belgilab olingan. Jumladan, giyohvandlikka chalinganlarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish choralari koʻrish, ichki ishlar organlari xodimlari narkotesterlar bilan taʼminlanishi, jinoyatlarni aniqlashda dronlardan foydalanilinish, narkolog mutaxassislar tayyorlash hajmi esa 5 baravarga oshirilishi belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi 813-I-son “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisida”gi Qonunining 3-moddasida **“giyohvandlik (narkotik) vositalari** — giyohvandlik vositalari roʻyxatiga kiritilgan va Oʻzbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi boʻlgan preparatlar va oʻsimliklar” va **“psixotrop moddalar** — psixotrop moddalar roʻyxatiga kiritilgan va Oʻzbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar” deb taʼrif berilgan.[2]

Qonunning 3-moddasida berilgan taʼriflar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni huquqiy jihatdan aniq belgilab, ularning nazoratda boʻlishi zarurligini koʻrsatadi. Bu taʼriflar xalqaro meʼyorlarga mos boʻlib, jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim huquqiy asos hisoblanadi. Biroq, yangi sintetik



moddalarining tez tarqalishi sababli ularni qamrab olish uchun qonun doimiy ravishda yangilanib borishi lozim.

Yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarga respublikamiz olimlaridan **A.A.Abdurazakov** "Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning asosiy sabablari: ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, oilaviy nazoratsizlik va yoshlarning ma'naviy bo'shliq sababli hamda "ijtimoiy yordamsiz qolgan yoshlar" orasida sodir etiladi. Shuning uchun kriminologik choralar faqat jazo emas, balki profilaktika, ta'lim va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga asoslanishi lozim." [3] desa, **Q.R.Abdurasulova** "Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar jamiyat uchun o'ta xavfli jinoyatlar qatoriga kiradi, chunki ular nafaqat jinoyatchilikni, balki boshqa ijtimoiy illatlarni ham kuchaytiradi." [4] deb, **B.X.Raxmatullaev** "Giyohvandlik jinoyatlarining xususiyati — davomlilik va guruhiylikdir. Yoshlar ko'pincha jinoyatni yakka holda emas, do'stlar yoki tanishlar bilan birgalikda sodir etadi. Shuning uchun profilaktika choralari mahalla, oila va ta'lim muassasalaridagi jamoaviy mas'uliyat orqali amalga oshirilishi lozim." [5] deb, **G.A.Zaxidova** "Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni "yoshlar ruhiyati, stress va muhit ta'siri ostida vujudga keladigan ijtimoiy-psixologik deviant xatti-harakatlar" [6] sifatida, izohlaydi, **N.U.Ashurova** "Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar — yoshlar huquqiy ongi pastligi va ijtimoiy muhofazasining yetishmasligi bilan bog'liq deviant xatti-harakatlardir" [7] deb ta'kidlaydi, **Sh.X.Sattorov** esa "Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni jamiyatning ma'naviy va huquqiy asoslariga putur yetkazuvchi, shaxsning ongi va ruhiyatini yo'qotuvchi ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar turi" [8] sifatida ta'riflaydilar.

Xorijiy olimlaridan **A.Vallon** (Fransiya) "Giyohvandlik va yoshlar jinoyatchiligi — shaxsning ijtimoiy adaptatsiya muammosi bilan bog'liq, u yoshlik davrini "hissiy beqarorlik va ijtimoiy yo'nalish izlash" davri" deb baholaydi. [9] **R.Merton** (AQSh) "“Anomiya nazariyasi”ga ko'ra, yoshlar jinoyatga, jumladan giyohvandlikka, jamiyatdagi maqsadlar va ularga yetish imkoniyatlari o'rtasidagi



tafovut tufayli moyil bo‘ladi”[10] desa, **Z.Freyd** (Avstriya) “Psixoanaliz nuqtai nazaridan, giyohvandlik — shaxsning ichki qo‘rquv va stresslarini yengish uchun qo‘llaydigan muhofaza usuli”[11] deb, **O.V.Kolesnik** “Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar bir vaqtning o‘zida qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy huquqiy munosabatlarning bir necha toifasiga tajovuz qiluvchi ko‘p ob‘ektlilik jinoyatlar qatoriga kirishini qayd etadi. Uning fikricha, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi va aholining sog‘ligi giyohvandlik vositalarini o‘tkazish maqsadida sodir etilgan jinoyatlarning bevosita ob‘ekti hisoblanadi. Ayni shu ob‘ektlar mazkur jinoyatning turdosh (maxsus) ob‘ekti sifatida ham amal qiladi”[12] deb, **K.Sh.Kurmanov** “Aholining sog‘ligi giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarning bevosita ob‘ekti, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini belgilovchi munosabatlar majmui esa – ularning turdosh (maxsus) ob‘ekti bo‘ladi”[13] degan fikrni ilgari suradi, **P.S.Matushevsk** esa “Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarning bevosita ob‘ekti – jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi va aholining sog‘ligi esa – ularning turdosh (maxsus) ob‘ektidir”[14] deb ta’riflaydilar.

Yuqorida keltirilgan qonun va olimlar fikrlaridan kelib chiqib, yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar tushunchasiga quydagicha ta’rif berishimiz mumkin.

Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar — bu jamiyatning ma’naviy va huquqiy asoslariga putur yetkazuvchi, yosh avlodning ongi, ruhiyati va ijtimoiy yo‘nalishini buzuvchi ijtimoiy xavfli deviant xatti-harakatlar majmui bo‘lib, ular giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni noqonuniy ravishda tayyorlash, saqlash, tashish, sotish yoki iste’mol qilish bilan bog‘liq qonunbuzarliklarda ifodalanadi.

Bu turdagi jinoyatlar, odatda, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, oilaviy nazoratsizlik, ma’naviy bo‘shliq, stress, muhit ta’siri va huquqiy ongning pastligi kabi omillar ta’sirida sodir etiladi. Ularning xavfli tomoni shundaki, bunday



xatti-harakatlar nafaqat shaxsning ruhiy va jismoniy sogʻligʻini izdan chiqaradi, balki jamiyatdagi boshqa ijtimoiy illatlarni ham kuchaytiradi.

Yoshlar oʻrtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlariga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, jinoyatlar asosan 14–30 yoshli shaxslar orasida sodir etiladi, koʻp hollarda ishsizlik, taʼlim tizimidagi muammolar va ijtimoiy muhit taʼsiri asosiy omil hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlar asosan sotish, saqlash, tayyorlash yoki tarqatish kabi harakatlar jinoyatning asosiy turlaridir. Shuningdek, hozirgi kunda internet orqali tarqatish holatlari soni ham ortib bormoqda.

Yoshlar oʻrtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlarni yuzaga keltirayotgan omillar sifatida, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, nazoratsizlik, ruhiy tushkunlik, qiziquvchanlik, ota-onalarning eʼtiborsizligi, tarbiyadagi kamchiliklar, internet va ommaviy madaniyatdagi salbiy targʻibotlar sabab boʻlmoqda. Yoshlar oʻrtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlar yoshlarning sogʻligʻi, maʼnaviyati va kelajagiga jiddiy zarar yetkazadi va jinoyatchilikning boshqa turlari (oʻgʻrilik, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik, tan jaroxati, bezorilik) uchun zamin yaratadi.

Yurtimizda giyohvandlikning oldini olish, davolash va noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish boʻyicha bir qator ishlar olib borilmoqda. “Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalar tarqalishiga qarshi kurashish” tezkor-profilaktik oyligi davomida “Biz giyohvandlikka qarshimiz” mavzusida oʻtkazilgan 53,5 ming uchrashuvda 1,5 milliondan ortiq yoshlarning ishtiroki taʼminlangan. Tadbirlar davomida 1 ming 277 narkojinoyat aniqlanib, noqonuniy muomaladan 804 kg giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar olingan.

Toshkent shahrida “Xavfsiz va sogʻlom poytaxt” profilaktik oyligi doirasida 50 mingdan ziyod profilaktik tadbirlar oʻtkazilgan. Ularga 2 milliondan ortiq fuqaro jalb etilib, 838 ming donadan ortiq maxsus buklet va flaerlar tarqatilgan.



Shuningdek, 165 ming 998 nafar o'quvchi va talaba bilan yakka tartibda profilaktik suhbat o'tkazilib, giyohvandlik va psixotrop moddalarning salbiy oqibatlari tushuntirilgan. Tadbirlar davomida 801 ta giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq holat aniqlanib, 567 jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Noqonuniy muomaladan 21,8 kg giyohvandlik vositalari, 28,8 ming dona va 26 kg miqdorda kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari olingan.

Ichki ishlar organlariga olib kelingan shaxslardan 266 nafari majburiy, 235 nafari ixtiyoriy davolanishga yotqizilgan. "Xavfsiz va sog'lom yurt" keng qamrovli tezkor-profilaktik oyli doirasida 7 ming 236 ta tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilib, 1 ming 191 nafar qidiruvdagi shaxslar ushlangan. Noqonuniy muomaladan 334 kg 266 gramm giyohvandlik vositalari, 68 ming 429 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari olingan.

Giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan shug'ullanuvchi narkodo'konlarning reklamasi aks etgan 3,6 mingdan ortiq holat aniqlanib, bartaraf qilingan. Ularni chizgan 8 nafar shaxs aniqlanib, ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Tadbirlar natijasida 5 ming 602 jinoyat qayd etilgan. Respublika bo'yicha 11 ming 725 ta oldini olish mumkin bo'lgan jinoyat qayd etilib, bu avvalgi yilga nisbatan 26 foizga kamaygan.

Tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan o'simliklar o'sayotgan maydonlarni aniqlash va yo'q qilish bilan bir qatorda, giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash hamda fosh etish maqsadida may-iyun oylarida "Qora dori - 2025" keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirining birinchi bosqichi o'tkazilgan.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyat sodir etgani uchun 4 ming nafardan ziyod shaxs ushlangan. Ulardan 1,8 tonnadan ortiq giyohvandlik vositalari va 894 ming 255 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari olingan.



So‘ngi yillarda respublikamizda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq sodir etilgan jinoyatlarning 22-25 foizi yoshlar (30 yoshgacha) tomonidan sodir etilgan. Mazkur ko‘rsatkich joriy yilning o‘tgan 8 oyida esa 33,4 foizni tashkil etgan.

Hozirgi kunda yoshlar orasida “Tropikamid”, “Pregabalin” (“Lirika”, “Regapen” va “Lipre”), “Zaleplon” (“Selofen”) kabi kuchli ta’sir qiluvchi preparatlar va tarkibida giyohvandlik vositasi bo‘lgan “Tramadol” dori vositalari keng tarqalgan. Qayd etish joizki, so‘nggi vaqtlarda onlayn platformalar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi uchun qulay axborot maydoniga aylanib bormoqda.

Ta’kidlanganidek, Internet makonida giyohvandlik vositalari va psixoaktiv moddalar savdosiga ixtisoslashgan 52 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning 14 tasi veb-saytlarda, 38 tasi esa telegram messengeri orqali faoliyat yuritgan. Telegram messengerida shu mazmunda 38 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning umumiy auditoriyasi 119 671 nafar foydalanuvchini tashkil etgan.

Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar qarshi kurashda ko‘pgina davlatlar samarali natijalarga erishgan. Jumladan, **Shvesiyada “giyohvandliksiz jamiyat”** konsepsiyasi qabul qilgan va yoshlar bilan ishlashda **psixologik yordam, sport faoliyati va volontyorlik dasturlari** muhim o‘rin tutadi.[15] **AQShda** “Drug-Free Communities” dasturi orqali hududlarda yoshlar guruhlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar, maktablarda “Say No to Drugs” shiori ostida motivatsion va amaliy seminarlar va yoshlar orasida “peer-to-peer education” - tengdoshlar orqali ta’lim usuli keng qo‘llaniladi.[16] **Singapurda** giyohvandlikka nisbatan **qat’iy jazo siyosati** bilan bir qatorda, **reabilitatsiya markazlari** ham faoliyat yuritadi hamda yoshlar bilan ishlashda **madaniy va diniy tarbiya elementlariga** katta ahamiyat beriladi.[17] **Kanadada** giyohvandlikni jinoiy muammo sifatida emas, balki sog‘liq muammosi sifatida ko‘radi va yoshlar uchun onlayn maslahat platformalari va anonim



psixologik yordam xizmatlari mavjud. Shuningdek, davolanish va reabilitatsiya jarayonida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qshyilgan.[18] **Norvegiyada giyohvandlik jinoyatini "kasallik" sifatida baholaydi va yoshlar bilan jazo emas, reabilitatsiya va ijtimoiy yordam orqali ishlaydi hamda davlat va jamoat tashkilotlari birgalikda "Recovery Community" dasturini amalga oshiradi.**[19] **Germaniyada** maktablarda "Psixologik barqarorlik" darslari joriy qilingan va yoshlarga stressni yengish, qaror qabul qilish va guruh bosimiga qarshilik ko'rsatish ko'nikmalari o'rgatiladi.[20] **Fransiyada** giyohvandlikka qarshi davlat dasturlari madaniy va ijtimoiy loyihalar bilan uyg'unlashgan va yoshlar uchun teatr, kino va ijtimoiy kreativ loyihalar orqali giyohvandlikning salbiy oqibatlari ko'rsatiladi.[21] **Janubiy Koreyada** davlat yoshlar bilan profilaktika ishlarini **texnologik yechimlar orqali** olib boradi va mobil ilova orqali yoshlar anonim ravishda maslahat olish va psixologik yordam so'rash imkoniyatiga ega.[22] **Avstraliyada maktablarda "Life Skills" dasturi orqali yoshlarga turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari o'rgatiladi va giyohvandlikka qarshi loyihalarda yoshlar o'zlari faol ishtirok etadi.**[23] **Finlyandiyada** davlat yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi **"Early Intervention"** (erta aralashuv) dasturini amalga oshiradi va maktablarda psixologlar va vrachlar har bir o'quvchining ruhiy holatini muntazam baholab boradi.[24] **Shveysariyada** davlat giyohvandlikka qarshi **"4 ustunli siyosat"**ni amalga oshiradi: profilaktika, davolash, zararni kamaytirish va qonunchilik choralari. Yoshlar bilan ishlashda **"Trust Points"** nomli maslahat markazlari tashkil etilgan.[25] **Yaponiyada** giyohvandlikka qarshi ta'lim bolalikdan boshlanadi. Maktablarda **"Sog'lom hayot darslari"** majburiy fan hisoblanadi. Jinoyat sodir etgan yoshlar uchun reabilitatsiya va mehnat faoliyati birlashtirilgan.[26] **Buyuk Britaniyada "Talk to FRANK"** nomli milliy onlayn platformani yo'lga qo'yilgan, u orqali yoshlar anonim ravishda maslahat va yordam olishadi hamda yoshlar bilan profilaktika ishlari tengdoshlar asosidagi ta'lim orqali amalga oshiriladi.[27]



Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishda jazo choralarini kuchaytirish emas, balki profilaktika, ta‘lim va ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish eng samarali usul hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalishda xalqaro amaliyotni milliy qadriyatlar, ma‘naviy an‘analar va diniy ma‘rifiy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirgan holda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar orasidagi giyohvandlikka qarshi kurashda **psixologik yordam va profilaktika xizmatlarini** rivojlantirish, **tengdoshlar vositachiligidagi targ‘ibot dasturlarini** joriy etish, hamda **onlayn reabilitatsiya platformalarini** yo‘lga qo‘yish zarur. Bundan tashqari, ta‘lim tizimida “Psixologik immunitet” va “Erta aniqlash va aralashuv” kabi dasturlarni joriy etish, har bir ta‘lim muassasasida psixolog-koordinator lavozimini tashkil etish yoshlarning ruhiy sog‘lomligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, yoshlar markazlari va mahallalarda **“Antinarkotik yoshlar klublari”**, **“Giyohvandlikka qarshi ijod”** nomli ijtimoiy loyihalar, hamda TikTok, Instagram va YouTube kabi platformalar orqali **sog‘lom hayot tarzini targ‘ib etuvchi chellenjlar** tashkil etish orqali yoshlarni ijobiy faoliyatga yo‘naltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish uchun davlat va jamiyat hamkorligida profilaktika, ma‘rifat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning integratsiyalashgan tizimini yaratish — milliy xavfsizlik va sog‘lom avlodni tarbiyalashning eng muhim kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi PF-73-son “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning



noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/86044>.

2. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi 813-I-son "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/86044>.

3. Абдуразаков.А.А. Криминологические аспекты незаконного оборота наркотических средств // Tadqiqot.uz – Илмий электрон журнал. – 2023. – №3. <https://www.tadqiqot.uz/index.php/law/article/view/9921>

4. Абдурасулова, Q. P. Криминология дарслик / – Тошкент : Тошкент давлат юридик университети, 2021. – 256 б.

5. Рахматуллаев, Б. Х. Наркотизм билан боғлиқ жиноятларнинг криминологик хусусиятлари: юрид. фан. фалс. докт. ... дисс. / Б. Х. Рахматуллаев. – Тошкент : Тошкент давлат юридик университети, 2022. – 180 б.

6. Zaxidova.G.A. Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni // Jinoyat huquqi va kriminologiya masalalari. – Toshkent, 2020. – № 2. – B. 45–49.

7. Ashurova.N.U. Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar — yoshlar huquqiy ongi pastligi va ijtimoiy muhofazasining yetishmasligi bilan bog'liq deviant xatti-harakatlardir // Huquq va jamiyat. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 52–56.

8. Sattorov.Sh.X. Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni jamiyatning ma'naviy va huquqiy asoslariga putur yetkazuvchi, shaxsning ongi va ruhiyatini yo'qotuvchi ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar turi sifatida // Yurisprudensiya ilmiy jurnali. — Toshkent, 2020. — № 3. — B. 45–50.

9. Валлон.А. Психическое развитие ребёнка / А. Валлон ; пер. с франц. – Москва : Просвещение, 1967. – 320 с.

10. Мертон.Р. Социальная теория и социальная структура / Р. Мертон ; пер. с англ. – Москва : АСТ, 2006. – 874 с.



11. Фрейд.З. Введение в психоанализ. Лекции [Текст] / З. Фрейд ; пер. с нем. – Москва : Наука, 1991. – 448 с.
12. The object of the crime is the interests of social subjects. - Almaty, Economics, 2008 .- P.103).
13. Колесник О.В. Уголовно-правовые меры борьбы с наркоманией в России. Дис... на соиск. уч. степ. канд. юрид. наук. – М., 1998. – С. 45 (Kolesnik O.V. Criminal law measures to combat drug addiction in Russia. Dis ... for a job. uch. step. Cand. jurid. sciences. - M., 1998 .- P. 45)
14. Курманов.К.Ш. Наркомания: уголовно-правовые и криминологические проблемы. – М., 1996. – С. 52. (Kurmanov K.Sh. Drug addiction: criminal law and criminological problems. - M., 1996 .- P. 52).
15. Shvesiyada “Giyohvandliksiz jamiyat” konsepsiyasi va yoshlar bilan ishlash tizimi haqida:*Swedish Government Official Reports*. — Stockholm: Ministry of Health and Social Affairs, 2022. — 145 p.
16. AQShda “Drug-Free Communities” va “Say No to Drugs” dasturlari haqida: *U.S. Department of Health and Human Services. Drug-Free Communities Program Annual Report*. — Washington, D.C., 2023. — 98 p.
17. Singapurda giyohvandlikka qarshi siyosat va rehabilitatsiya tizimi haqida: *Singapore Central Narcotics Bureau. Annual Drug Situation Report*. — Singapore, 2022. — 76 p.
18. Kanadada giyohvandlikni sog‘liq muammosi sifatida baholash bo‘yicha ma’lumot: *Government of Canada. Canadian Drugs and Substances Strategy*. — Ottawa, 2023. — 112 p.
19. Norvegiyada “Recovery Community” dasturi va rehabilitatsiya usullari haqida: *Norwegian Directorate of Health. National Strategy on Drug Policy*. — Oslo, 2022. — 84 p.



20. Germaniyada “Psixologik barqarorlik” ta’lim dasturi haqida: *Federal Centre for Health Education (BZgA). Drug Prevention in Schools*. — Berlin, 2023. — 101 p.

21. Fransiyada madaniy va ijtimoiy loyihalar orqali profilaktika haqida: *Ministère de la Santé et des Solidarités. Stratégie nationale de prévention des addictions 2023–2027*. — Paris, 2023. — 109 p.

22. Janubiy Koreyada texnologik profilaktika usullari haqida: *Korea National Police Agency. Drug Prevention Policy Report*. — Seoul, 2023. — 92 p.

23. Avstraliyada “Life Skills” ta’lim dasturi haqida: *Australian Government Department of Health. National Drug Strategy 2022–2030*. — Canberra, 2022. — 123 p.

24. Finlyandiyada “Early Intervention” dasturi haqida: *Finnish Institute for Health and Welfare (THL). Early Intervention in Substance Abuse among Youth*. — Helsinki, 2022. — 67 p.

25. Shveysariyada “4 ustunli siyosat” haqida: *Swiss Federal Office of Public Health. National Policy on Addiction and Prevention*. — Bern, 2023. — 88 p.

26. Yaponiyada “Sog‘lom hayot darslari” va reabilitatsiya tizimi haqida: *Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). Health Education Curriculum*. — Tokyo, 2022. — 95 p.

27. Buyuk Britaniyada “Talk to FRANK” onlayn platformasi haqida: *UK Government. Department of Health and Social Care. Drug Prevention Strategy Report*. — London, 2023. — 104 p.